
TURKIY ADABIYOTDA AHMAD YASSAVIY YO‘LI VA MEROSI mavzusidagi XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

(Samarqand, 13-14 iyun, 2025-yil)

“TÜRK EDEBİYATINDA AHMED YESEVÎ YOLU VE MİRASI” temali ULUSLARARASI BİLİMSEL-TEORİK KONFERANSININ MATERYALLERİ

(Semerkand, 13-14 Haziran 2025)



Samarqand -2025

“TURKIY ADABIYOTDA AHMAD YASSAVIY YO‘LI VA MEROSI”
mavzusidagi
XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI
(Samarqand, 13-14 iyun, 2025-yil)

“TÜRK EDEBİYATINDA AHMED YESEVÎ YOLU VE MİRASI”
temali
ULUSLARARASI BİLİMSEL-TEORİK KONFERANSININ MATERYALLERI
(Semerkand, 13-14 Haziran 2025)

Samarqand – 2025

Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodini yosh avlodga yetkazish tajribasidan (Turkiyalik olim Hayati Bijening “Yassaviy bobodan hikoyalar” kitobi asosida)

Abdumurod Tilavov, f.f.n.,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dotsenti

Anotatsiya: Yosh avlod tarbiyasi hozirgi kunda har davrdagidan ham muhimroq bo‘lgani sir emas. Yoshlarimizning milliy madaniyatimiz va mentaliltetga yot madaniy xurujlar ta’sirida o‘zligidan, shonli tarixi, madaniyat va ma’rifatidan uzoqlashayotgani achchiq haqiqat. Ana shu tahdiddan qutulishning muhim choralaridan biri ma’naviyatimiz darg‘alari hayoti va ijodini yoshlar tushunishi, o‘zlashtirishi oson yo‘llar bilan yetkazishdir.

Mazkur maqolada “Piri Turkiston” (Alisher Navoiy ta’rifi), hikmat sohibi Xoja Ahmad Yassaviy hayotiga oid bir asar tahlili misolida yuqorida qayd etilgan muammoga yechim topishga harakat qilinadi.

Kalit so‘zlar: *hikmat, yosh avlod, Ahmad Yassaviy, mehr, tarbiya.*

Abstract: It is no secret that the upbringing of the younger generation is now more crucial than ever before. It is a bitter truth that our youth, under the influence of cultural incursions alien to our national culture and mentality, are becoming estranged from their identity, glorious history, culture, and enlightenment. One of the important measures to overcome this threat is to convey the life and work of our spiritual luminaries in ways that are easily understood and assimilated by young people.

This article attempts to find a solution to the aforementioned problem through the analysis of a work about the life of Khoja Ahmad Yassavi, the "Pir of Turkestan" (as described by Alisher Navoi), a man of wisdom.

Keywords: *wisdom, younger generation, Ahmad Yassavi, compassion, upbringing.*

Özet: Genç neslin yetiştirilmesinin her zamankinden daha önemli olduğu bir sır değil. Gençlerimizin, millî kültürümüze ve zihniyetimize yabancı kültürel saldırıların etkisi altında kimliklerinden, şanlı tarihlerinden, kültürlerinden ve aydınlanmalarından uzaklaştıkları acı bir gerçektir. Bu tehditten kurtulmanın önemli tedbirlerinden biri, manevi önderlerimizin yaşam ve eserlerini gençlerin anlayabileceği ve özümseyebileceği biçimlerde aktarmaktır.

Söz konusu makalede, “Pîr-i Türkistan” (Ali Şîr Nevâî’yi tanımlar) hikmet sahibi Hoca Ahmet Yesevî’nin hayatını konu alan bir eserin tahlil edilmesiyle yukarıda bahsedilen soruna bir çözüm bulmaya çalışılmaktadır.

Anahtar Kelimeler: *Hikmet, genç nesil, Ahmet Yesevî, sevgi, terbiye.*

Alisher Navoiy “Nasoyim ul muhabbat” asarida Xoja Muhammad Porsoning quyidagi hikmatini keltiradilar: “Ovqatlanishda o‘rtacha me’yor saqlansa, ya’ni o‘ta to‘q ham, o‘ta och ham bo‘lmasa, shuningdek, til behuda gapdan sukut qilsa, qalb Alloh bilan tillashadi.

Sukut ikki xildir: tilning sukuti va qalbning dunyo andishalaridan sukut qilishi.

Kimki, tilida sukut qilsa-yu, qalbida sukut qilmasa, gunohi yengil bo‘ladi. Kimki, tilda ham, qalbda ham sukut qilsa, unga sirlar zohir bo‘ladi, ulug‘ va qudratli Parvardigor unga tajalliy qiladi.

Kimki tilida ham, qalbida ham sukut saqlamasa, shaytonning malayi va qo‘g‘irchog‘i bo‘ladi. Bundan barchamizni Allohning O‘zi asrasin!

Kimki qalbda sukut qilib, tilda sukut qilmasa, behuda gapdan tiyiladi, hikmat tili bilan gapiruvchi bo‘ladi.

Alloh taolo fazlu karami ila ulardan bizni nasibador aylasin!” (Sayfulloh Sayfiddin, 2024, 31).

Xoja Ahmad Yassaviy nazmining “hikmat” atamasi bilan yuritilishi ham bejiz emas. Demak, bu zot qoldirgan ma’naviy meros - “qalbdir”, ta’bir joiz bo‘lsa, jilovlangan nafs hosilasidir.

Ha, hikmat aytish insonlar ichida hammaga ham nasib etmaydi. “Hikmat mo‘minning yo‘qotgan narsasidir, uni qayerda topsa olishga haqlidir” hadisi (Ibn Moja rivoyati. Imom Buxoriy, 2002, 302). Bizni ilm-ma’rifat, hikmatni o‘rganish va o‘rgatishga targ‘ib etadi. Qur’oni karimda esa hikmat sohiblari alohida madh etiladi: “U (Alloh) O‘zi istagan kishilarga hikmat (foydali bilim) beradi. Kimga hikmat berilgan bo‘lsa, demak, unga ko‘p yaxshilik berilgani aniqdir” (Baqara surasi, 269-oyat).

Ahmad Yassaviy ana shunday “ko‘p yaxshilik berilgan” nodir shaxsiyatlardandir. Hayoti va ijodi ibratga to‘la “Xoja Ahmad Yassaviyning tarixiy siymosini tiklashga kirisharkanmiz, mavjud manbalarda naql qilingan manoqibiy shaxsiyatini ko‘rsatishga harakat qilamiz. Xalqning yuksak e’tiqodi tufayli yaratilgan bu shaxs manoqiblarda o‘zining asl tarixiy siymosidan biroz yiroq bo‘lsa-da, nihoyatda katta ijtimoiy ahamiyatga molikligi bois jiddiy tadqiqqa loyiqdir” (Ko‘prulu Fuad, 2024, 95).

Xoja Ahmad Yassaviyning hayotiga doir ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Badiiy adabiyotda bu zotning siymosi go‘zal ifodasini topdi. Endi esa yosh kitobxonlar tushunadigan sodda, ravon uslubda yozilgan asarlarga esa katta ehtiyoj bor edi.

Turkiyalik adib Hayati Bijening “Yassaviy bobodan hikoyalar” asari ana shu ma’naviy ehtiyoj tufayli yuzaga keldi, deyish mumkin (Hayati Bije, Yassaviy bobodan hikoyalar. Toshkent, 2021).

Muallif Hayati Bijening asl kasbi shifokorlik. Sohasining yaxshi bilimdoni. Hatto tanlagan sohasiga doir kitoblar ham nashr etgan.

Ma’naviyatga, ma’rifatga oshnolik, xususan, Ahmad Yassaviy ma’naviy merosiga samimiy muhabbat Hayati Bijeni yassaviyshunos bo‘lib kamol topishiga sabab bo‘ldi. Biz nega toshbosma va qo‘lyozma nusxalarni qiyosiy o‘rganib, nashrga tayyorlagan “Devoni Hikmat” Turkiyada bir necha bor nashr etildi, e’tibor va e’tirofga loyiq ko‘rildi (Hoca Ahmet Yesevi. Divani-ı Hikmet, Hazırlayan Dr. Hayati Bice, 2021).

Tadqiqotchi har bir hikmatning zamonaviy turk tilidagi ravon tarjimalarini ushbu nashrlar orqali turk o‘quvchilariga taqdim etdi:

Bismillah dep beyan eyley hikmet aytıb
Taliblerge dürr ü gevher saçtım mena.
Riyazetni kattığ tartıp kanlar yutup
Men defter-i sani sözim açtım mena.

Hayati Bije o‘girmasi quyidagicha:

Bismillah deyip beyan ederek hizmet söyleyip
Taleb edenlere inci, cevher saçtım işte.
Riyazeti sıkı çekip, kanlar yutup
İkinci defterin sözlerini açtım işte. (Ko‘rsatilgan manba, 59).

“Yassaviy bobodan hikoyalar” asari esa, Hayati Bijening yassaviyshunoslik borasidagi o‘ziga xos tadqiqoti bo ‘ldi, deyish mumkin.

Kitob muqaddimasida mazkur tadqiqotning mazmun-mohiyati, maqsadi muallif tomonidan quyidagi samimiy so‘zlar bilan ifodalanadi. Ildizlari qariyb ming yillarga borib taqaladigan Yassaviylik tariqatida Xoja Ahmad Yassaviy hayot yo‘lining o‘rganilishi, uzun qish kechalarida sandal atrofida jam bo‘lib suhbatlar qurilishi, Yassaviy va uning izdoshlari haqidagi rivoyatlarning tildan-tilga o‘tishi yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga xizmat qilib, ma’naviy komillikka yetishishiga asos bo‘ladi, imon-ixloslarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

Ayni maqsad yo‘lida qo‘limga qalam olib, Ahmad Yassaviy haqida og‘zdan-og‘izga o‘tib kelayotgan rivoyatlarni yangicha talqinda (ta’kid bizdan.- A.T) “Yassaviy bobodan hikoyalar” nomi ostida yoki kitobxonlarga taqdim qilishni ko‘nglimga tugdim” (Ko‘rsatilgan manba, H.B.6).

Mo‘zaj kitob qisqa fursatda bolajonlarning sevimli asariga aylandi. Bir necha bor qayta nashr etildi. 2018-yilda ozarbayjon tilida va nihoyat o‘zbek tiliga ham tarjima qilib nashr etilishi e’tibor va e’tirof natijasidir.

Asarning ayrim jihatlariga to‘xtalish maqsadga muvofiq. Asarda tarixiy voqealar, Ahmad Yassaviyning bolaligi va hayoti bilan bog‘liq lavhalar yosh o‘quvchi tushunadigan til va uslubda, muhim tarixiy haqiqatlarga uyg‘un tarzda berilgan.

Kitobning birinchi hikoyati “Arslon boboning xurmosi” deb nomlangan.

Muallif hikoyani dabdurustdan boshlamaydi. Qorachoy oilasidagi davra suhbati jarayonida voqea tafsiloti bayon etiladi.

To‘satdan elektr chirog‘ining o‘chishi ma’rifiy suhbatga sabab bo‘ladi. Qo‘liga sham bilan otasining yoniga kelgan Fotima “Cho‘pon ota, iltimos, bizga “Arslon boboning xurmosi”ni aytib bering”,-deya iltimos qiladi.

Shu lavhadayoq o‘quvchida ilm-ma’rifatga chanqoq bu oilaga nisbatan havas uyg‘onadi. “Kitobsevarlik, kitobxonlikni oila sharoitida qanday yo‘lga qo‘yish mumkin?” savolingizga javob topa boshlaysiz.

“Otasi va’da berdimi, albatta, uni bajarishini yaxshi bilgan Fotima shu bugun, chiroq o‘chgan bu kecha eng ma’qul fursat ekanini o‘ylab, otasining yoniga o‘tirib oldi. Qizaloq butun vujudi quloqqa aylangan holda, katta qiziqish bilan otasining so‘z boshlashini kutardi.”

E’tibor qilinsa, yozuvchi bu o‘rinda oiladagi namunali otaning muhim fazilatiga ishora qilmoqda. “Va’da qarzdir”, “Chin mo‘min yolg‘on so‘zlamaydi” hikmatlarini hayotiga tatbiq etgan oila boshlig‘idan so‘z yuritmoqda.

Muallif bosh qahramonning nima uchun “Cho‘pon ota” deb yuritilishini ham chiroyli izohlaydi.

Muborak hadisi sharifda oila boshlig‘ining misoli cho‘pon ekani, u qo‘l ostidagilaridan mas’ul ekani ta’kidlanadi. “Unday bo‘lsa, sizni bundan keyin “Cho‘pon ota” deb chaqiramiz, degan taklifi ovozga qo‘yilgan va oila a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilingan, shundan keyin oila boshlig‘ining nomi “Cho‘pon ota” bo‘lib qolgan edi”(40-bet).

Muallif shu o‘rinda yana bir qiziq faktni, aniqrog‘i izohni ham keltiradi: “Bu ism turmush o‘rtog‘ining Cho‘pon ota nomini olishiga sababchi bo‘lgan xonadon bekasining xayoliga ular turmush qurishgan ilk yili O‘rta Osiyoni sayohat qilish uchun yo‘lga chiqishganida, Toshkent yaqinidagi tepalikda joylashgan “Cho‘pon ota maqbarasi” ziyoratidan qolgan xotiradan kelgan bo‘lsa ajabmas” (11-bet).

Yuqoridagi ikki parchada oila saodati sirlari yashiringan, desak, yanglishmaymiz. Yuksak odob-ahloqqa yo‘g‘rilgan muomala madaniyati, turmushning avvalida Ahmad Yassaviy, Zangi ota, Cho‘pon ota kabi azizlarning ziyorati naqadar ahamiyatli ekaniga chorlov bor go‘yo.

“Arslon boboning xurmosi” hikoyasida “Aql yoshda emas-boshda” maqolining o‘ziga xos sharhini ham topasiz.

Tushida Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallamdan omonatni-xurmoni olgan Arslon boboni “bu xurmo egasini qanday taniyman”, qanday topaman? degan savol qiynardi.

“Uning o‘zi sendan omonatini so‘raydi” mazmunidagi muborak javobdan so‘ng xotirjam bo‘ladi.

Ne holki, darhaqiqat, o‘rtoqlari bilan o‘ynayotgan yosh Ahmad otasi va akasi Ibrohimni hayratga solgan holda “Oqsoqol, mening omonatimni bering”,-deydi.

Kitobdagi “Yassaviyning Gavhar opasi”, “Sulton Sanjarni duo qilish”, “Yassaviyning sariq ho‘kizi”, “Hakim Otaning hikmati”, “Zangi Otaning otar qo‘yi”, “Xaziniyning mahzun hikoyasi” kabi hikoyalar ham syujeti qiziq, tadrijiy tamoyilga asoslangan holda keltiriladi. Yosh kitobxonning imkoniyati inobatga olinib, hikoyatlarga mos rasmlar ishlangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi nafaqat yosh avlod, balki hamma yoshdagi o‘quvchilar uchun ibrat maktabidir. Chunki u o‘z shogirdlariga o‘rnak bo‘ladigan tarzda hayot kechirdi. Chunonchi, bir kunlik hayotini uchga taqsimlardi: birinchi qismida talabalari bilan shug‘ullanib, ularga ilmu irfondan saboq berar; ikkinchi qismida shaxsiy toat-ibodatlari bilan band bo‘lar; uchinchi qismida esa qoshiqtaroshlik hunarida halol mehnat qilardi. Shu bois o‘z ta’limotida halol mehnat qilib, pok luqma iste’mol etish, birovlarga yuk bo‘lmaslik, balki boshqalarga yordam berishni tashviq qiladi” (Ibrohim Haqqul, Nodirxon Hasan, 2024,7).

Hayati Bijening “Yassaviy bobodan hikoyalar” kitobi shu g‘oyalarni yosh kitobxonlar oson qabul qiladigan sodda uslubda bayon qilgan ma’rifiy qo‘llanmadir.

Adabiyotlar:

1. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Таржима ва тафсир муаллифи Абдулазиз Мансур. Тошкент: “Тошкент ислом университети”, 2009.-624 б.
2. Имом Бухорий. “Саҳиҳул Бухорий”, Тошкент: “Адолат”, 1998.-662 б.
3. Hayati Bije. Yassaviy bobodan hikoyalar. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021.-112 b.
4. Hoca Ahmed Yesevi. Divan-ı Hikmet. Hazırlayan Dr. Hayatı Bıce. Ankara, TDV 2021.-608 s.
5. Alisher Navoiy. Nasoyim-ul muhabbat. MAT, 8-jild, -Toshkent: “Fan”, 1993. -326 b.
6. Mehmet Fuad Ko‘prulu. Turk adabiyotida ilk mutasavviflar. Toshkent: “Akademnashr”, 2024.-496 b.
7. Sayfiddin Sayfulloh. Buyuklar tuhfasi. Toshkent: “Muharrir”, 2021. -112 b.